



THE INTERPRETATION OF TRADITIONAL FAKHRIYA AND THE POET'S TALENT IN NAVOI'S GHAZALS AND QITAS

Sarvinoz Otakulova

Basic Doctoral Researcher at the Institute of Uzbek Language

Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Teacher at Asian International University

e-mail: sarvinozotaqulova3@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: traditional fakhriya, talent, poetic pride, nazm, artistic devices, hyperbole, personification, tanosub, lyrical hero.

Received: 15.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article analyzes traditional fakhriyas in Alisher Navoi's works and examines how the poet's creative talent and artistic mastery are expressed in them. The fakhriyas are classified according to their semantic orientation and the object of poetic pride, with special attention given to examples centered on pride in extraordinary talent. The poet's achievements in lyrical, panegyric, and didactic themes, as well as the artistic devices used to express them, are studied on a scholarly basis. The article also reveals Navoi's personality, the inner world of the lyrical hero, and his place in the literary milieu through these fakhriyas.

NAVOIY G'AZAL VA QIT'ALARIDA AN'ANAVIY FAXRIYA VA SHOIR ISTE'DODINING TALQINI

Sarvinoz Otaqulova

O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

e.pochta: sarvinozotaqulova3@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: an'anaviy faxriya, iste'dod, iftixor, nazm, badiiy san'atlar, mubolag'a, tashxis, tanosub, lirik qahramon.

Annotatsiy: Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodidagi an'anaviy faxriyalar tahlil qilinib, ularda shoirning ijodiy iste'dodi va badiiy mahorati qanday ifodalangani

o'rganiladi. Faxriyalar mazmuniy yo'nalishi hamda iftixor obyektiga ko'ra tasniflanib, ayniqsa favqulodda iste'doddan iftixor ruhida namunalarga alohida e'tibor qaratiladi. Shoirning ishqiy, madhiy va didaktik mavzulardagi ijodiy yutuqlari hamda ularni ifodalashda qo'llangan badiiy san'atlar ilmiy asosda tahlil etiladi. Shuningdek, faxriyalar orqali Navoiy shaxsiyati, lirik qahramon ruhiyati va adabiy muhitdagi o'rni ochib beriladi.

ТРАКТОВКА ТРАДИЦИОННОЙ ФАХРИИ И ПОЭТИЧЕСКОГО ТАЛАНТА В ГАЗЕЛЯХ И КЫТЪАХ НАВОИ

Сарвиноз Отақулова

Базовый докторант Института узбекского языка, литературы и фольклора

Академии наук Республики Узбекистан,

Преподаватель Азиатского международного университета

эл. почта: sarvinozotaqulova3@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: традиционная факрия, талант, поэтическая гордость, назм, художественные средства, гипербола, олицетворение, таносуб, лирический герой.

Аннотация: В статье анализируются традиционные факрии в творчестве Алишера Навои и рассматривается, как в них выражены поэтический талант и художественное мастерство поэта. Фахрии классифицируются по содержательной направленности и объекту поэтической гордости; особое внимание уделяется образцам, в которых доминирует мотив гордости своим исключительным дарованием. Научно анализируются творческие достижения поэта в любовной, панегирической и дидактической тематике, а также художественные средства, использованные для их выражения. Кроме того, через факрии раскрываются личность Навои, духовный мир лирического героя и его место в литературной среде.

Kirish. Alisher Navoiy ijodida noan'anaviy faxriyalarga qaraganda an'anaviy faxriyalar salmoqli o'rin tutadi. Shoir an'anaviy iftixoriyalarda o'z nazmi va ijodiy salohiyati madhini berib, bundan g'urur tuyadi. Mazkur maqolada mutafakkir ijodkor an'anaviy faxriyalari mazmuniy

yoʻnalishi va iftixor obyektiga koʻra shartli ravishda quyidagicha tasniflanadi: 1) favqulodda isteʼdod sohibi ekanligini bayon qilish; 2) ustozlarini ulugʻlash asnosida oʻzining ularga munosib shogird ekanligini taʼkidlash; 3) oʻz ijodini boshqa shoirlar bilan qiyoslash; 4) turli janrdagi sheʼrlar va ularning badiiyati bilan bogʻliq qarashlar; 5) oʻz asarining shuhratidan iftixor tuygʻulari. [1. 95]

Yuqoridagi tarmoqlardan Navoiy favqulodda isteʼdod sohibi ekanligini ikki xil yoʻsinda bayon etadi. Birinchisi, maʼlum mavzudagi sheʼrlar ijod etishda qobiliyatli ekanligini koʻrsatish boʻlsa, ikkinchisi, umumiy nazm bobidagi isteʼdodidan faxr tuygʻusini ifodalash usulidir. Shu bois favqulodda isteʼdod sohibi ekanligini bayon etish mazmunidagi iftixoriyalarni ikki guruhga ajratib oʻrganish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili. “Xazoyin ul-maoniy” devonida maʼlum mavzuda nazm ijod etishda qobiliyatli ekanligi mazmuni singdirilgan favqulodda isteʼdodidan iftixori bayoni keltirilgan faxriyalar jami toʻrtta boʻlib, ularning barchasi “Gʻaroyib us-sigʻar”dan oʻrin olgan. Ularning ikkitasida shoir ishqiy mavzuda sheʼr bitishdagi mahoratini aks ettiradi. Jumladan, “Ishqing oʻtingar Navoiy desakim aylay raqam, / Soʻzidin kuyar qalam, qurur qora, erir davot” baytida shoir oʻz qobiliyatini ochiqlashda mubolagʻaning gʻuluvv deb ataluvchi turidan foydalanadi. Qalam kuyishi, siyoh qurishi va siyohdon erishi kabi mazmun kuchi ortib boruvchi ifodalar tadriij badiiy sanʼatini yuzaga chiqaradi. [2. 79]

Yana bir faxriyada “Baski, Navoiy ayladi dard surudida navo, / Ahli tarabni yigʻlatur majlisining taronasi” misralari orqali ishqiy mavzudagi sheʼrlarning taʼsirchanligi koʻrsatiladi. Birinchi misrada shoir taxallusi va navo soʻzi oʻzaro asosdosh boʻlgani bois ishtiyoq sanʼati hosil boʻladi; ikkinchi misradagi majlis soʻzini bob yoki boʻlim maʼnosida qabul qilish esa baytdagi faxriy mazmunni yanada teranlashtiradi. [3. 476]

Navoiy ijodidagi keyingi faxriya hukmdor maqtoviga asoslangan madhiy yoʻnalishda sheʼr insho qilishdagi qobiliyatidan faxrlanish mazmunida vujudga kelgan: “Dur boʻlur bahr ichra pinhon nazmidin shah madhida, / Bahr yoshurmish Navoiy har duri maknun aro”. Bu yerda durning dengiz tubiga yashirinishiga doir tasvir tashxisni, dur, duri maknun, bahr kabi birliklar esa tanosub badiiy sanʼatini hosil qiladi. [4. 39]

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada matn tahlili, qiyosiy-poetik kuzatish va badiiy sanʼatlarni aniqlash usullaridan foydalanildi. Faxriya baytlaridagi iftixor obyektlari, ularning ifodalanish yoʻllari hamda mazmuniy tarmoqlari ajratib koʻrsatildi. Baytlar tarkibidagi tashbeh, istiora, tashxis, tazod, ishtiyoq, tanosub va talmeh singari sanʼatlar funksional jihatdan sharhlandi.

Tadqiqot jarayonida faxriyalar avvalo mavzuiy yo‘nalishiga ko‘ra guruhlarga ajratildi. So‘ngra har bir baytda shoir iste‘dodining qay yo‘sinda namoyon bo‘lgani, faxr tuyg‘usining bevosita yoki bilvosita berilishi, lirik qahramon ruhiyati bilan bog‘liqligi tahlil etildi. Shu asosda Navoiyning an‘anaviy faxriyalarida ijodiy “men” ning ko‘rinishlari umumlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Didaktik yo‘nalishdagi “Ko‘nguldin jahl ranji dofiyi gar istasang bordur, / Navoiy bog‘i nazmi shakkaristonida ul gulqand” baytida shoir tarbiyaviy yo‘nalishda yetuk iste‘dod sohibi ekanligiga ishora qiladi. Nazmiy devonini shakkariston bog‘i, undagi didaktik she‘rlarini esa gulqand timsolida berish orqali istiora san‘ati ustuvorlik kasb etadi. [5. 110]

Umumiy she‘riyat bobidagi iste‘dodidan iftixor ifodasi “Bulbullar olur nolani ta‘lim, agar etsa, / Bog‘ichra Navoiy o‘z-o‘zi birla tarannum” baytida ham yorqin ko‘rinadi. Shoir dardli va ta‘sirchan nazm yaratish mahoratini bulbulning nola qilishni undan o‘rganishi haqidagi mubolag‘aviy tasvir orqali ko‘rsatadi. Bu o‘rinda bulbulga ta‘lim olish sifatining yuklanishi tashxisni, bulbul, bog‘, nola va tarannum kabi birliklarning uyg‘unligi esa tanosubni yuzaga keltiradi. [6. 317]

“Oncha faryod etti mutriblar Navoiy nazmidin / Kim, Utorid she‘ridin charx uzra Nohid etmagay” baytida Utorid va Nohid obrazlari vositasida shoir o‘z iste‘dodining kuchini qiyosiy tarzda ochadi. Bu yerda shoirlik ramzi va osmoniy mutrib obrazlarining jalb qilinishi faxriyaning badiiy ko‘lamini kengaytiradi, faryod etmak va etmaslik antonimlari esa tazod uchun zamin yaratadi. [7. 457; 8. 200]

Navoiy nazmiy mahoratini hukmdor tahsini orqali ham ko‘rsatadi: “Ey Navoiy, chun guhar beqadr erur shoh ollida, / Ne ajab gar bo‘lsa nazmingdin qoshida xor lafz” hamda “Ey Navoiy, shoh G‘oziy gavhari nazming bilur, / Kim, fido har lafzig‘a ko‘zdin durri maknun etar” baytlarida shoirning nazmi gavhardan-da yuksak qadrlanishi, uning hukmdor ruhiyatiga ham ta‘sir o‘tkaza olishi ifodalanadi. [9. 233; 10. 113]

Bilvosita ifodalangan faxriyalarda esa shoir iste‘dodi boshqa qahramonlar tilidan baholanadi. “Debturki: Navoiy so‘zining bandasidurmen...” baytida hukmdor tilidan shoir nazmiga ixlos izhor qilinadi. “Dedim: Ey gulrux, Navoiyg‘a navo yetkur...” misrasida esa ma‘shuqa Navoiyni bulbulga qiyoslash orqali uning ijod borasidagi benazirligini yashirin ta‘kidlaydi. Bu usul shoirning iste‘dodini yanada nozikroq, estetik jihatdan ta‘sirchanroq ko‘rsatishga xizmat qiladi. [11. 189; 12. 70]

Diniy tushuncha va ifodalardan foydalangan iftixoriyalarda ham Navoiy o‘ziga xos yo‘l tutadi: “Navoiy sihr emas, go‘yo Qalimullo asosidur...” bayti she‘riyatning ilohiy-ma‘rifiy

manbalarga suyanishini ko'rsatadi. "Gar Navoiy kilkidek el kilki shakarrez ema..." misralarida esa o'z ijodini nayshakar, boshqa ijodkorlar asarini g'aravga qiyoslash orqali shoir badiiy maydondagi ustun mavqeini ta'kidlaydi. [13. 379; 14. 356]

Nihoyat, "Xusrav, Navoiyo, seni ko'rsa, / Shohni degay Malikshohi soniy" bayti va "Ey Navoiy, so'z ila oncha gavhar sochtingim..." qit'asi Navoiyning chor devon tartib berishdek noyob ijodiy salohiyatini ifodalaydi. Bu baytlarda talmeh, tashbeh, mubolag'a va ritorik so'roq kabi vositalar shoir iste'dodining ko'lami va adabiy muhitdagi yuksak mavqeini ochishga xizmat qiladi. [15. 431; 16. 11; 17. 508]

Xulosa. Demak, an'anaviy faxriyalarning birinchi turi bo'lmish favqulodda iste'dod bayoni aks etgan iftixoriyalarda Navoiy ba'zan muayyan mavzuda ijod etishdagi qobiliyatidan, ba'zan esa umumiy nazm bobidagi yuksak salohiyatidan faxrlanadi. Shoir ushbu turdagi faxriyalarida ishqiyy, madhiy va didaktik mavzulardagi yutuqlarini o'ziga xos obrazlar, talmehlar va badiiy san'atlar vositasida ifodalaydi.

Shuningdek, mazkur faxriyalar lirik qahramonning ruhiy holatini, shoirning poetik "men"ini hamda adabiy muhitdagi mavqeini ochishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Navoiy g'azal va qit'alaridagi an'anaviy faxriya namunalari shoir iste'dodining ko'lamini, uning poetik tafakkuri va badiiy mahoratini teranroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupova D., Mahmudov U. Sharq mumtoz adabiyotida faxriya // Oltin bitiglar. – 2024. – №2.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3-том. – Т.: Фан, 1988.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3-том. – Т.: Фан, 1988.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3-том. – Т.: Фан, 1988.
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3-том. – Т.: Фан, 1988.
6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 4-том. – Т.: Фан, 1989.
7. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 4-том. – Т.: Фан, 1989.
8. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 2 жилдлик, 1-жилд. Масъул муҳаррир: Ш. Сирожиддинов. – Т.: Шарк, 2016.
9. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3-том. – Т.: Фан, 1988.
10. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 6-том. – Т.: Фан, 1990.
11. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 5-том. – Т.: Фан, 1990.
12. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 6-том. – Т.: Фан, 1990.
13. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 6-том. – Т.: Фан, 1990.

14. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 6-том. – Т.: Фан, 1990.
15. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 4-том. – Т.: Фан, 1989.
16. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3-том. – Т.: Фан, 1988.
17. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 5-том. – Т.: Фан, 1990.